e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/gewzfx46

GLOBALLASHUV JARAYONIDA TASAVVUFIY AN'ANALARNING SAQLANISHI VA TRANSFORMATSIYASI

Atamuratova Mirjaxan Jumanazarovna
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, (PhD).
e-mail: atamuratovamirjahan75@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0001-3600-6426

Annotatsiya.
Ushbu maqolada O'zbekiston va Qoraqalpog'istonning sotsiomadaniy muhitida tasavvufiy an'analarning tarixiy davomiyligi, sovet davrida norasmiy tarzda saqlanish mexanizmlari hamda mustaqillik va globallashuv sharoitida yuz bergan institutsional-funksional transformatsiyasi ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda tasavvufiy an'analarning klassik tariqatlar doirasidan chiqib, madaniy-ramziy institut va kundalik axloqiy qadriyatlar tizimi sifatida namoyon bo'lish jarayonlari yoritiladi.
Kalit so'zlar: globallashuv, tasavvuf, transformatsiya, sotsiomadaniy integratsiya, madaniy xotira, ziyorat turizmi, ma'naviy immunitet.

СОХРАНЕНИЕ И ТРАНСФОРМАЦИЯ СУФИЙСКИХ ТРАДИЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Атамуратова Миржахан Жуманазаровна
Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза, (PhD).

Аннотация.
В статье с социально-философской точки зрения анализируются историческая преемственность суфийских традиций в социокультурной среде Узбекистана и Каракалпакстана, механизмы их неформального сохранения в советский период, а также институционально-функциональная трансформация в условиях независимости и глобализации. В исследовании рассматриваются процессы выхода суфийских традиций за рамки классических тарикатов и их проявления в качестве культурно-символического института и системы повседневных нравственных ценностей.
Ключевые слова: глобализация, суфизм, трансформация, социокультурная интеграция, культурная память, паломнический туризм, духовный иммунитет.

PRESERVATION AND TRANSFORMATION OF SUFI TRADITIONS IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Atamuratova Mirjaxan Jumanazarovna
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz, (PhD).

Abstract.
This article provides a socio-philosophical analysis of the historical continuity of Sufi traditions in the sociocultural environment of Uzbekistan and Karakalpakstan, the mechanisms of their informal preservation during the Soviet period, and their institutional and functional transformation under the conditions of independence and globalization. The study examines the processes through which Sufi traditions have extended beyond the framework of classical Sufi orders and have come to function as a cultural-symbolic institution and a system of everyday moral values.
Keywords: globalization, Sufism, transformation, sociocultural integration, cultural memory, pilgrimage tourism, spiritual immunity.

Kirish. XXI asrda globallashuv jarayonlari nafaqat iqtisodiy va siyosiy chegaralarni, balki insoniyatning ma'naviy-axloqiy qarashlarini ham tubdan o'zgartirmoqda [1, 42-b.]. Axborot oqimining shiddatli tus olishi, texnokratik tafakkur ustuvorligi hamda iste'molchilik madaniyatining ommalashuvi zamonaviy insonni o'z ichki «men»idan uzoqlashtirib, ruhiy bo'shliq va begonalashuvga olib kelmoqda. Ana shunday murakkab davrda ko'p asrlik ma'naviy-falsafiy meros bo'lgan tasavvufga nisbatan butun dunyoda qiziqish qayta jonlanmoqda.

O'zbekiston zamini azaldan tasavvuf ta'limoti rivoj topgan yirik sivilizatsiyaviy markazlardan biri sanaladi [2, 15-b.]. Mintaqada qaror topgan Yassaviya, Kubraviya va Naqshbandiya kabi nufuzli tariqatlar nafaqat diniy-e'tiqodiy qarashlarni, balki jamiyatning ma'rifiy, axloqiy va ijtimoiy-madaniy hayotini ham tartibga solib turgan. Xususan, Xoja Ahmad Yassaviy an'anasi turkiy ruhiyatga yaqinligi hamda xalqona didaktik she'riyati orqali ijtimoiy odob-axloqni targ'ib etgan bo'lsa, Naqshbandiya tariqati «Dil ba yoru, dast ba kor» tamoyili asosida shaxsiy ruhiy hushyorlikni halol mehnat, ijtimoiy faollik va fuqarolik mas'uliyati bilan uyg'unlashtirgan [3, 74-b.].

Hozirgi taraqqiyot bosqichida madaniy birxillashuv, axborot xurujlari hamda an'anaviy qadriyatlarning qadrsizlanish xavfi yaqqol kuzatilmoqda. Bunday sharoitda tasavvufiy merosning saqlanishi va zamonga moslashuvini o'rganish zarurati quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- **Davlat siyosati va ma'naviy tiklanish uyg'unligi:** milliy merosni asrash strategiyasi doirasida tarixiy xotirani qayta tiklash jamiyatning barqaror taraqqiyoti hamda milliy birdamlikning mustahkam poydevoriga aylanmoqda.
- **Sotsiomadaniy integratsiya va jipslashtiruvchi omil:** tasavvufiy obidalar va ziyoratgohlar mahalliy aholi hayotida odamlarni o'zaro yaqinlashtiruvchi, jamoaviy ishonch hamda avlodlararo qadriyatlar uzviyligini mustahkamlovchi muhim ma'naviy maskanlarga aylanmoqda.
- **Yoshlar tarbiyasidagi himoya va tarbiyaviy salohiyat:** tasavvuf axloqiga xos insonparvarlik, sabr-qanoat, mehr-oqibat va kamtarlik kabi fazilatlar yoshlarda ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usini kuchaytirib, ularni turli yot va buzg'unchi ta'sirlardan asraydigan mustahkam «ma'naviy immunitet»ni shakllantiradi.
- **G'oyaviy-mafkuraviy xavfsizlik zarurati:** axborot makonida turli buzg'unchi xurujlar kuchayib borayotgan bir paytda tasavvufning mo'tadillik, ma'rifatparvarlik va bag'rikenglik g'oyalari «jaholatga qarshi ma'rifat» tamoyilini hayotga tatbiq etishning mustahkam ma'naviy va amaliy tayanchi bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tasavvufning ijtimoiy mohiyati va postsovet davridagi o'zgarishlari mahalliy hamda xorijiy tadqiqotchilar tomonidan tizimli o'rganilmoqda. Jumladan, professor J. Xolmo'minov ta'kidlaganidek, tasavvuf ajdodlarimizdan qolgan tabarruk ma'naviy meros bo'lib, uni avaylab-asrash, jiddiy o'rganish va kelajak avlodga yetkazish zarur. Zero, uning ijtimoiy mohiyatini anglashda ichki sotsiomadaniy kontekst hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [4, 38-b.].

Postsovet makonida tasavvufning qayta jonlanish dinamikasini tadqiq etgan I. Pankova, A. Abashina va A. Knish esa bu jarayonni ma'naviy uyg'onish bilan bir qatorda, jamiyatning ijtimoiy jihatdan chetlanayotgan ayrim yoshlar qatlamlari orasida radikal talqinlarga qiziqish kuchayishiga javoban «profilaktik-ma'rifiy» mexanizm sifatida ham baholaydilar [5, 86-b.]. Shuningdek, N. Komilov, G'. Navro'zova va S. Otamurodovlarning ilmiy asarlarida tasavvuf axloqining zamonaviy jamiyat ma'naviy barqarorligi hamda milliy o'zlikni asrashdagi o'rni atroflicha yoritilgan. Qoraqalpog'istonda islom madaniyati, eshonlik an'analari va muqaddas ziyoratgohlarning tarixiy-ijtimoiy asoslari esa M. Karlibayev [6], G'. Xo'janiyozov va O. Yusupov [7] hamda X. Esbergenovning [8] tadqiqotlarida tahlil qilingan.

Metodologiya. Tadqiqotda tarixiylik va mantiqiylik, tizimli-funksional tahlil, sotsiomadaniy yondashuv hamda qiyosiy-tahliliy usullardan foydalanildi. Bu usullar sovet davridagi norasmiy saqlanish shakllarini mustaqillik davridagi institutsionallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari bilan qiyoslash, shuningdek, Qoraqalpog'iston mintaqasining polietnik va mahalliy xususiyatlarini ochib berish imkonini yaratdi [9, 11-b.].

NATIJALAR

Olib borilgan ijtimoiy-falsafiy tahlillar natijasida globallashuv sharoitida tasavvufiy an'analarning saqlanishi hamda O'zbekiston va Qoraqalpog'iston tajribasidagi zamonaviy transformatsiyasiga oid quyidagi asosiy natijalar aniqlandi:

Globallashuvning madaniy unifikatsiya ta'siriga javoban milliy va diniy o'zlikni anglash tamoyili kuchaymoqda. Bu jarayonda tasavvuf o'zining ikki fundamental jihatini saqlab qoldi:

Zamonaviy texnika taraqqiyoti insonni murakkab tizimning bir qismiga aylantirayotgan bir paytda tasavvuf insonni ma'naviy kamolot sohibi sifatida ulug'laydi. Nafsni tarbiyalash va qalb pokligi g'oyalari bugun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Tasavvufning «Vahdat ul-vujud» hamda «Yaratilganni Yaratuvchi haqqi sevish» tamoyillari global dunyodagi konfessiyalararo va millatlararo ziddiyatlarni yumshatishda muhim falsafiy tayanch bo'lib xizmat qilmoqda [2, 212-b.].

Sovet davrida amalga oshirilgan ateistik siyosat va ma'muriy cheklovlar oqibatida madrasalar, xonaqohlar hamda ziyoratgohlar yopilib, tariqatlar rasmiy ijtimoiy maydondan siqib chiqarildi [5, 54-b.]. Biroq tasavvuf qadriyatlari yo'qolib ketmay, oilaviy tarbiya, ustoz-shogirdlik an'anasi hamda mahalliy ulamolar, shayxlar va eshonlar atrofidagi jamoaviy munosabatlar orqali yashirin tarzda saqlanib qoldi. Natijada u rasmiy tuzilmadan ko'ra, el-yurt xotirasi va axloqiy immunitetni avloddan avlodga uzatuvchi norasmiy sotsiomadaniy mexanizm sifatida yashab keldi.

1991-yildan keyin, ayniqsa, so'nggi yillarda tasavvuf merosini o'rganish yangi bosqichga ko'tarildi. Buxorodagi «Yetti pir» majmualari obod etilib, Bahouddin Naqshband nomidagi tasavvuf ilmiy maktabi hamda Mir Arab oliy madrasasi faoliyati yo'lga qo'yildi [10]. Toshkentda Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari hamda O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tashkil etildi. Hududlarda «kalom», «hadis», «fiqh», «aqida va tasavvuf» fanlariga ixtisoslashgan 520 ta ilmiy maktab ochildi. Islom sivilizatsiyasi markazi konsepsiyasi doirasida qo'lyozmalar va moddiy yodgorliklarni raqamli formatga o'tkazish orqali tasavvufiy manbalarni zamonaviy «raqamli madaniy xotira»ga integratsiya qilish jarayoni jadallashdi.

Globallashuv sharoitida tasavvuf ta'limotining ijtimoiy hayotga moslashuvi bir necha o'zaro bog'liq yo'nalishlarda yaqqol ko'zga tashlanmoqda:

«Madaniy-ramziy institut» sifatida qayta jonlanish: tasavvufiy an'analar endilikda shaxsiy ibodat yoki yakka tartibdagi ziyorat doirasidan chiqib, jamoaviy hamjihatlik, milliy-mintaqaviy o'zlikni anglash va madaniyatlararo muloqot maydoniga aylanmoqda. Buni ziyorat turizmi infratuzilmasining kengayishi, noyob qo'lyozmalarning raqamlashtirilishi hamda Samarqand shahrining 2025-yilda «Islom dunyosi madaniy poytaxti» deb e'lon qilinishi doirasidagi xalqaro madaniy anjumanlar misolida ko'rish mumkin [11].

«Kundalik axloq» va ijtimoiy faollikning ustuvorligi: Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston zaminida shakllangan Naqshbandiya tariqatining «Dil ba yoru, dast ba kor» tamoyili bugungi kunda yangicha ijtimoiy mazmun kasb etib, tarkidunyochilik o'rnini ijtimoiy mas'uliyat, halol mehnat va jamiyat farovonligi yo'lidagi faollik egallamoqda [3, 118-b.]. Oila va mahalla munosabatlarida sabr-qanoat, kechirimlilik, kattalarga ehtirom hamda o'zaro mehr-oqibat kabi fazilatlar jamiyatni ichdan jipslashtiruvchi real axloqiy kapitalga aylanmoqda.

Global miqyosdagi sekulyarlashuv va tijoratlashuv xavflari: G'arb jamiyatida tasavvuf ayrim hollarda o'zining

ISSN 3060-5059 (Online)

islomiy-shar'iy asoslaridan uzoqlashib, psixoterapiya va meditatsiya amaliyotlari bilan qorishib ketmoqda [5, 134-b.]. Shu bilan birga, sufizmning ayrim unsurlari (samo raqslari yoki zikr marosimlari) chuqur ma'naviy mohiyatidan uzilib, sayyohlik industriyasining «ekzotik shou»siga yoki tijorat treninglari brendiga aylanib qolish xavfi ham kuzatilmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasida tasavvufiy merosning bugungi holati mintaqaning polietnik tarkibi, ekologik sharoiti va mahalliy an'analari bilan uzviy bog'langan. Mustaqillik yillarida bu hududda masjid va madrasalar soni sovet davridagi 3 tadan 63 taga yetdi, Nukusda Muhammad Beruniy nomidagi Islom o'rta maxsus bilim yurti tashkil etildi [12]. Bugungi kunda Qoraqalpog'istonda tasavvuf mustaqil tariqat instituti sifatida mavjud bo'lmasa-da, u xalq og'zaki ijodi, ziyorat odobi, mahalla va qarindoshlik rishtalari orqali yashovchi tirik sotsiomadaniy hodisa sifatida saqlanib qolgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi 100-sonli qarori asosida Qoraqalpog'istondagi muqaddas qadamjolarda zamonaviy infratuzilma yaratildi [13]. Jumladan:

- **Sulton Uvays bobo majmui (Beruniy tumani)** — XVII–XIX asrlarga oid me'moriy yodgorlik bo'lib, mahalliy diniy tasavvurlar, tarixiy rivoyatlar va jamoaviy birlashuv tajribasini mujassamlashtiradi.
- **Abdullo Norinjiy ziyoratgohi (Ellikqal'a tumani)** — mahalliy avliyo siymosi bilan bog'liq xalq e'tiqodi va marosimiy amaliyotlar markazi.
- **Qoraqum ishon ziyoratgohi (Chimboy tumani)** — hududiy jamoada hurmat, sabr va saxovat kabi axloqiy me'yorlarning ijtimoiy qaror topishini kuchaytiruvchi maskan.
- **Hokim ota ziyoratgohi (Mo'ynoq tumani)** — ma'naviy poklanish, shukronalik va tarixiy xotirani jonlantirish orqali kompleks ma'rifiy-turistik tajribani shakllantiruvchi obyektga aylantirildi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, globallashuv va raqamli kommunikatsiya rivojlangan davrda tasavvufiy an'analar o'zining tarixiy qobig'ini o'zgartirib, yangi ijtimoiy vazifalarni o'z zimmasiga olmoqda. Masalan, 2025-yilning yanvar–oktyabr oylarida O'zbekistonga 9,7 million nafar xorijiy fuqaroning turistik maqsadlarda tashrif buyurishi [14] ziyorat turizmini nafaqat iqtisodiy resurs, balki milliy o'zlikni mustahkamlash va madaniyatlararo muloqotni kengaytirishning muhim kanaliga aylantirdi. Ziyoratgohlar atrofida yo'l, servis, ekskursiya va axborot ta'minotining kuchayishi ziyorat amaliyotini «an'anaviy safar»dan «tashkillashtirilgan ma'rifiy-madaniy yo'nalish» darajasiga olib chiqmoqda.

Shu bilan birga, internet va ijtimoiy tarmoqlarda diniy soha vakillarining faollashuvi, xususan, Naqshbandiya–Mujaddidiya an'anasi ta'sirida shakllangan kundalik zikr qoidalarining keng ommaga taqdim etilishi o'ziga xos ijtimoiy-falsafiy munozaralarni keltirib chiqarmoqda. Bir tomondan, «an'anaviy» va mo'tadil tasavvuf merosining ommalashtirilishi diniy ekstremizm va mutaassiblikka qarshi ma'naviy immunitetni mustahkamlaydi. Ikkinchi tomondan esa, ayrim an'anaviy sufiy doiralari bu jarayonni ehtiyotkorlik bilan kuzatib, tasavvufning ommaviylashuvi uning chuqur irfoniy-axloqiy mohiyatini yuzakilashtirmasligi yoki siyosiy-ideologik vositaga aylantirib qo'ymasligi lozimligiga e'tibor qaratadilar.

Shuning uchun ham zamonaviy sharoitda tasavvufiy merosni targ'ib qilish shunchaki yubiley yoki xotira marosimlari yig'indisi bo'lib qolmasdan, balki jamiyatning ma'naviy-axloqiy salohiyatini boyitish, dunyoviy davlat prinsiplarini milliy-madaniy meros bilan uyg'unlashtirish hamda diniy maydonda noqonuniy va radikal targ'ibotning ildiz otishiga yo'l qo'ymaslikka xizmat qilishi zarur. Qoraqalpog'istonda tasavvufiy qadriyatlar qat'iy tariqat tartib-qoidalarisiz ham xalq og'zaki ijodi, ziyorat odobi, mahalla muhiti hamda kattalarga hurmat an'analari orqali odamlarni o'zaro jipslashtiruvchi mustahkam ma'naviy tayanch vazifasini bajarmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi ijtimoiy o'zgarishlar tasavvuf an'analarini hayotdan siqib chiqargani yo'q, aksincha, ularning zamonaviy jamiyat uchun foydali bo'lgan yangi ma'rifiy va axloqiy qirralarini ochib berdi. Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Sovet tuzumining og'ir ma'muriy tazyiqlari davrida ham oila muhiti va el-yurt xotirasida saqlanib qolgan tasavvufiy qadriyatlar mustaqillik yillarida davlatning ma'naviy-ma'rifiy siyosati hamda huquqiy islohotlari tufayli qayta jonlandi. Globallashuv davrida tasavvuf o'zining azaliy axloqiy mag'zini saqlab qolgan holda, tezkor o'zgarishlar ichidagi inson uchun ruhiy muvozanat va barqarorlik nuqtasi bo'lib xizmat qilmoqda.

2. Globallashuv sharoitida tasavvuf tor doiradagi ruhiy-irfoniy mashg'ulot bo'lib qolmasdan, madaniy-ramziy meros hamda kundalik turmush odobi ko'rinishidagi keng qamrovli ma'rifiy hodisaga aylandi. U milliy o'zlikni saqlab qolish, yoshlarni ichki ruhiy poklikka undash hamda ekstremizm va radikalizmga qarshi mustahkam «ma'naviy qalqon» vazifasini o'tamoqda.

3. Qoraqalpog'istondagi Sulton Uvays bobo, Hakim ota, Abdullo Norinjiy va Qoraqum ishon kabi ziyoratgohlarning obod etilishi el-yurtning o'z tarixiy ildizlariga bo'lgan ehtiromini kuchaytirdi. Ushbu muqaddas maskanlar avlodlar o'rtasidagi ma'naviy rishtalarni mustahkamlab, xalq og'zaki ijodi va ziyorat odobi vositasida azaliy axloqiy qadriyatlarni jamiyat ongiga singdirib bormoqda.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

- Qoraqalpog'iston Respublikasidagi tasavvufiy ziyoratgohlar va ma'naviy meros obyektlarining ilmiy asoslangan elektron ma'lumotlar bazasi hamda uch tilli (qoraqalpoq, o'zbek, ingliz) raqamli ziyorat-gid xaritasini ishlab chiqish;
- Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan, «Ma'naviyat asoslari» va «Falsafa» kurslari tarkibida tasavvufning insonparvarlik va mehnatsevarlik g'oyalarini yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish omili sifatida kengroq yoritish.

ISSN 3060-5059 (Online)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Otamurodov S. Globallashuv va millat: siyosiy-falsafiy tahlil. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. – 204 b. – URL: https://akbt.tkti.uz/uz/books/226. akbt.tkti.uz
2. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr, 2009. – 448 b. – URL: https://kitobxon.com/oz/kitob/tasavvuf. kitobxon.com
3. Navro‘zova G. N. Naqshbandiya – kamolot yo‘li. – Toshkent: Fan, 2007. – 189 b. – URL (kitobga bibliografik havola): https://bukhari.uz/?lang=oz&p=48591. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi
4. Xolmo‘minov J. Qiyosiy tasavvufshunoslik. – Toshkent: Yosh avlod matbaa, 2021. – URL: https://kitobxon.com/oz/kitob/qiyosiy-tasavvufshunoslik.
5. Суфизм после СССР: коллективная монография / под ред. И. А. Панкова, С. Н. Абашина, А. Д. Кныша. – Москва; Санкт-Петербург: Марджани; Аль-Макам, 2022. – **512 с.** – URL: https://mardjani.foundation/ru/shop/books/scientific-literature/sufism-after-the-ussr-19. mardjani.foundation
6. Карлыбаев М. А. К истории ислама у каракалпаков: исторические, социальные, этнические и генеалогические контексты. – Нукус: **Илим**, 2021. – 274 с. – URL (kitobga bibliografik havola): https://api.ziyonet.uz/uploads/books/7007/62e92567786e2.pdf. api.ziyonet.uz
7. Хожаниязов Ғ., Юсупов О. Қарақалпақстандағы мухаддес орынлар. – Нөкис, 1994. – URL (kitobga bibliografik havola): https://historicalethnology.org/news/2022-t7-n3-6/. Историческая этнология Historical Ethnology
8. Есбергенов Х., Ходжаниязов Т. Социальная сущность и обряды святых мест Каракалпакстана. – Нукус: Каракалпакстан, 1988. – 144 с.
9. Atamuratova M. J. Qoraqalpoq xalqi ma’naviy hayotiga tasavvuf ta’limoti ta’sirining ijtimoiy-falsafiy tahlili: falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – 2026.
10. Shavkat Mirziyoyev «Yetti pir» haqida… // O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (UzA.uz) [Elektron resurs]. – URL: https://uza.uz/uz/posts/shavkat-mirziyeev-etti-pir-a-ida-kitob-yaratish-zarurligini--29-03-2019.
11. Samarqand shahri – 2025-yil Islom dunyosi madaniy poytaxti // Samarkand.uz [Elektron resurs]. – URL: https://samarkand.uz/press/news/samarqand-shahri-2025-yil-islom-dunyosi-madaniy-poytaxti.
12. Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi masjidlar soni 63 taga yetdi // Yuz.uz [Elektron resurs]. – URL: https://yuz.uz/uz/news/qoraqogiston-respublikasidagi-masjidlar-soni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 100-son qarori // Lex.uz [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/5315060.
14. O‘zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar statistikasi (2025-yil yanvar–oktabr) // Afisha.uz [Elektron resurs]. – 2025. – URL: https://www.afisha.uz/uz/tourism/2025/11/26/turizm.